



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 15-avgust

402-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 12-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida” 2024-yil 1-avgustdagi 476-son qarori ijrosi haqida”gi 372-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida” 2024-yil 1-avgustdagi 476-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024-yil 12-avgust 372-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 12-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida” 2024-yil 1-avgustdagi 476-son qarori ijrosi haqida”gi 372-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-avgustdagi 476-sonli qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoniga muvofiq quyidagilar:

Xalqaro akkreditatsiya forumi (IAF) tomonidan ko‘p tomonlama tan olish bitimiga kiritilgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishi va yetkazib berish zanjirida xalqaro sifatni boshqarish tizimini joriy qilishi hamda zarur bo‘lgan uskuna va laboratoriya jihozlari xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlarning 50 foizi, lekin 500 mln. so‘mdan oshmagan miqdori;

yillik tushumida tayyor oziq-ovqat mahsulotlari eksportidan tushum ulushi kamida 30 foizni tashkil qiladigan hamda har yili 1 mln AQSH dollaridan ortiq hajmdagi mahsulotlarni eksport qiluvchi mahalliy korxonalar tomonidan muhandis-texnolog, marketolog, dizayner va xalqaro standartlar bo‘yicha xorijiy mutaxassislar jalb qilinganda, ularga hisoblangan ish haqining 30 foizi, biroq mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 10 baravaridan ko‘p bo‘lmagan qismi Vinochilikni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi belgilanganligi;

Respublika oziq-ovqat sanoati korxonalarida xalqaro sifatni boshqarish tizimini joriy qilish hamda laboratoriyaga zarur bo‘lgan uskuna va jihozlarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar uchun subsidiyalar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish xarajatlarining bir qismini qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyatda oziq-ovqat sanoati korxonalarida xalqaro sifatni boshqarish tizimini joriy qilish hamda laboratoriyaga zarur bo'lgan uskuna va jihozlarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun subsidiyalar ajratishga ko'maklashuvchi viloyat ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish xarajatlarining bir qismini qoplab berish uchun subsidiya ajratishga ko'maklashuvchi tumanlar ishchi guruhlarining na'munaviy tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

4. Mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish xarajatlarining bir qismini qoplab berish uchun subsidiya ajratishga ko'maklashuvchi tuman ishchi guruhi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Xakimov), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (A.Xatamov), Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligi tuman loyiha ofisi mutaxassisi (X.G'ulomov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-avgustdagi 476-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov

Mingbuloq tuman hokimining
2024-yil 15-avgustdagi
402-6-81-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalarini tomonidan xorijiy mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining bir qismini qoplab berish uchun subsidiya ajratishga ko'maklashuvchi tuman ishchi guruhi

TARKIBI

1.	A.Mansurov	Tuman hokimi, <i>Ishchi guruh rahbari</i>
2.	Sh. Umaraliyev	Tuman hokimining investitsiyalar, sanoat va savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari, <i>Ishchi guruh rahbari o'rinbosari</i>
3.	Z.Axmadjonov	Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'
4.	J.Anvarov	tuman soliq inspeksiyasining boshlig'i
5.	X.G'ulomov	Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligining tuman loyihasi ofisi mutaxassisi, <i>Ishchi guruh kotibi</i>